

**BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA KICHIK YOSHDAGI
O'QUVCHILARNING FIKRLASH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHIGA
QO'YILADIGAN DIDAKTIK TALABLAR**

**ДИДАКТИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К РАЗВИТИЮ МЫСЛИТЕЛЬНОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ НА УРОКАХ
ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК**

**DIDACTIC REQUIREMENTS FOR DEVELOPING THE THINKING ACTIVITY
OF YOUNG STUDENTS IN NATURAL SCIENCE LESSONS**

Nuriddinova Maysara Ikramovna

UZFPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakul'teti

Boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti

Muhammadqodirova Nozimaxon Botirjon qizi

UZFPI magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik talablar tahlil qilinadi. Kichik yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini yuzaga chiqarish, ularning tafakkurini shakllantirish, kuzatuvchanlik, tahlil qilish va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik metodlar va yondashuvlarning o'rni yoritiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida interfaol usullardan samarali foydalanishning ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: fikrlash faoliyati, boshlang'ich ta'lim, kichik yoshdagi o'quvchilar, didaktik talablar, ta'lim metodlari, interfaol usullar, kuzatuvchanlik, tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, rivojlantiruvchi ta'lim.

Аннотация: В статье анализируются дидактические требования, способствующие развитию мыслительной деятельности младших школьников на уроках в начальных классах. Рассматриваются современные педагогические методы и подходы, направленные на развитие интеллектуального потенциала, формирования логического мышления, наблюдательности и аналитических навыков у детей младшего школьного возраста. Особое внимание уделяется эффективному применению интерактивных методов в образовательном процессе.

Ключевые слова: мыслительная деятельность, начальное образование, младшие школьники, дидактические требования, методы обучения, интерактивные методы, наблюдательность, анализ, логическое мышление, развивающее обучение.

Annotation: This article analyzes the didactic requirements for developing thinking activity in young learners during primary school lessons. It highlights modern

pedagogical methods and approaches aimed at enhancing children's intellectual abilities, shaping logical thinking, and improving observation and analytical skills. Special attention is given to the effective use of interactive techniques in the educational process.

Keywords: thinking activity, primary education, young learners, didactic requirements, teaching methods, interactive techniques, observation skills, analysis, logical thinking, developmental education.

Kirish: Respublikamizda amalga oshiriliyotgan ishtimoiy - iqtisodiy, texnik taraqqiyotning bugungi zamonaviy bosqichi ta'lim - tarbiya tizimi oldiga demokratik jamiyatda erkin yashay oladigan, huquqiy madaniyati shakillangan, ishtimoiy munosabatlarga kirishimli, umuminsoniy qadryatlarga yo'nalgan ishtimoiy faol, ma'naviy jihatdan etuk yoshlarni tarbiyalash vazifasini qo'yadi.

Maskur vazifalar tarbiyaviy ishlar jarayonida amalga oshiriladi. Jamiyatda kishi mavqeyining ortib, shaxsga e'tiborning kuchayotgan bir davrda ushbu maqsadlarini ro'yobga chiqarish ma'naviy-ma'rifiy ishlarga yangicha yondoshuvni talab etadi. Shuning uchun ham, sungi yillarda ta'lim jarayoni bilan birga tarbiyaviy ishlarga ham innovatsion yondoshuvni amalga oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Hozirgi kunda o'quvchilarni zamon talabiga mos o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish bilan bir qatorda ta'limini ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishni taqozo etmoqda. Bu jamiyatga o'z qarashlari shakillangan, keng fikrga ega, ijodkor, qobiliyatli egalagan bilimlarini hayotga tatbiq eta oladigan, davr talabiga mos yashab, mehnat qiladigan, madaniyatli, odob-ikromli, odamgarchilik xususiyatlariga ega bo'lgan, jismoniy jihatdan barkamol yoshlarni tarbiyalash talabini qo'ymoqda.

Dars ta'lim-tarbiya jarayonining markazi hisoblanadi. Shuning uchun ham davr talabiga mos kadrlar tayyorlashda maktabning o'рни katta ekanligi hammamizga ma'lum. Shu boic maktabda darsga alohida ahamiyat qaratiladi va o'qituvchining zamon talabiga mos dars o'qitishi talab etiladi.

Adabiyotlar tahlilin va metodlar: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash faoliyatini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'lim tizimida dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Bu yo'nalishda olib borilgan ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida kichik yoshdagi o'quvchilarning tafakkurini shakllantirishda dars mazmuni, didaktik vositalar va metodik yondashuvlarning o'рни alohida ahamiyat kasb etadi.

Fikrlash jarayonining psixologik asoslari haqida L.S. Vygotskiy o'zining “Pedagogik psixologiya” asarida chuqur ilmiy asoslar beradi. U o'quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishda “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasini ilgari suradi va bunda o'quvchining mustaqil fikrlashdan ko'ra ko'mak orqali yangi tafakkur

darajalariga ko‘tarilishi mumkinligini isbotlaydi. Bu qarashlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda dars mazmuni va metodik yondashuvlarga o‘ziga xos talablar qo‘yishni taqozo etadi.(1)

Rus olimi V.V. Davydovning faoliyatga asoslangan yondashuvi ham bolalar tafakkurini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Uning fikricha, kichik maktab yoshida nazariy fikrlashni shakllantirish mumkin bo‘lib, buning uchun o‘quv jarayoni maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida tashkil etilishi kerak. Bu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.(2)

Mahalliy pedagog olimlar, xususan, T. Tillaevning “Didaktika” asarida didaktik tamoyillar va ularga qo‘yiladigan talablar chuqur tahlil etilgan. Muallif ta’lim jarayonini tashkil etishda samaradorlik, rivojlantiruvchanlik va izchillik tamoyillariga asoslanish zarurligini qayd etadi. Ayniqsa, rivojlantiruvchi o‘qitish g‘oyasiga tayanib, dars davomida o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtiruvchi topshiriqlardan foydalanish muhimligi ta’kidlanadi.(3)

Shuningdek, R. Raxmonov va M. Allayevalarning “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” nomli darsligi kichik yoshdagi o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish bo‘yicha metodik ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi. Bu asarda fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi dars shakllari, o‘quv topshiriqlari va interaktiv metodlar keng yoritilgan.(4;5)

Zamonaviy tadqiqotlar ham mazkur masalaga dolzarblik baxsh etmoqda. Jumladan, Sh. Yusupovanning “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash faoliyatini rivojlantirishning samarali yo‘llari” nomli maqolasida tahliliy, mantiqiy va ijodiy fikrlash turlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashq va topshiriqlar tavsiya etiladi. G. Nurmatovanning ilmiy maqolasida esa didaktik talablar asosida dars mazmunini tanlash, uni tizimli tashkil etish orqali o‘quvchilarning tafakkurini bosqichma-bosqich rivojlantirish usullari bayon qilingan.(7, 8).

X.Toshxo‘jayevning “Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalar” nomli monografiyasi esa interfaol metodlar yordamida fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlarni taqdim etadi. Unda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘quvchilar tafakkuriga ta’siri va darsda ulardan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.(5)

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kichik yoshdagi o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirish uchun dars jarayonida psixologik yondashuv, didaktik tamoyillar, metodik vositalar va innovatsion texnologiyalarning uyg‘unligi ta’minlanishi zarur. Shu bois, boshlang‘ich sinf darslariga qo‘yiladigan didaktik talablar nafaqat bilim berishga, balki o‘quvchilarning tafakkurini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Uzoq davrlar mobaynida dars jarayonini tashkil etish nazariyasi ishlab chiqilgan bo'lsada, uni amalga oshirishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Masalan, o'quvchining o'zi mustaqil ravishda ishlashi, bilimlarni o'zi mustaqil egallab olish qobiliyati hali to'g'ri yo'lga qo'yilmagan, ya'ni, dedak olimlar ta'kidlaganidek “Yomon o'qituvchi haqiqatni beradi, yaxshi o'qituvchi esa shu haqiqatni o'zi egallab olish yo'lini ko'rsatib beradi”.

Dars ko'proq o'quvchilarning mavjud bilimlarni egallashga yo'naltiradi. Tashqaridan qaraganda bu yondoshuv to'g'ri bo'lib ko'rinsada bu masala atroflicha tahlil qilinganda asosan tashqi ko'rinishga e'tibor qaratilib, ichki tuzilishida o'quvchilarning bilim olishi, o'y-fikrlash qobiliyati hisobga olinmaydi. O'quvchi o'zining oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun harakat etadi. O'quvchilarning faolligi etiborga olinadi-da, biroq amalga oshirilmaydi. To'g'ri tashkil etilmagan dars o'quvchilarning o'qish-bilim faolligini nazorat qilish imkoniyatini yarata olmaydi. Har xil metod va usullarni amalda qo'llash imkoniyati yo'q. darsning borishidagi yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni nazarga olib, ko'pchilik педагог олимплар dars borishini mustaqil tuzib, o'quvchining faolligi, topqirligi, ijodkorligini ta'qiqlamaslik zarur deyishadi. Bu fikrni to'g'ri talqin etish lozim: “Ta'qiqlamaslik kerak” deganda, darsning borishini xohlagancha tashkil eaver, deb tushunmaslik kerak. Darsning borishini uning to'riga, maqsadiga, mazmuniga, bolalarning imkoniyatiga qarab tashkil etilishi shart.

Jamiyatimizda bo'layotgan o'zgarishlar o'qish metodikasiga nazariy va amaliy jihatdan davr talabiga mos darsni tashkil qilishni talab etmoqda. Shuning uchun ham, taniqli olimlar bilan metodistlar, ijodkor o'qituvchilar bugungi dars qanday bo'lishi kerak, u oldingi o'tilgan darsdan nimasi bilan farq qilishi lozim degan savolga javob qidirmoqda. Shundan kelib chiqib, o'quv-tarbiya jarayonining mazmuni ham yangilandi, maktyabgacha ta'lim-tarbiya jarayonining sifatiga o'quv jarayoninig sifatiga, o'quv jarayonini tashkil etishga e'tibor kuchaydi.

Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar, ilg'or texnologiyalarning qo'llanishi, mashg'ulotlarning rang-barang qiziqarli tarzda tashkil etilganligira olib kelish bilan o'quv materiallarini chuqur O'zlashtirishga ham keng imkoniyatlar yaratadi. Shunday ekan, har bir o'qituvchi o'qitishning ilg'or, samarali usullarini izlash yoxud an'anaviy usullardan ijodiy foydalanishni taqozo qiladi.

Boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslarida o'quvchilarga jonli va jonsiz tabiat to'g'risida aniq bilimlar berish ularning o'zoro bog'liqligini ochib berish, odam organizmi va uning salomatligini saqlash to'g'risida ma'lumotlar berish, tabiatda kuzatishlar o'tkazish o'quv va ko'nikmalar bilan qurollantirish, tabatdan oqilona foydalanish va uning boyliklarini ko'paytirishga qaratilgan insoning mehnat faoliyati bilan tanishtirish, jonajon tabiatga muhabbat, uni muhofaza qilishga intilishni

tarbiyalash kabi masalalar yoritiladi. Bunda bolalarga odamlar mehnati atrof tabiat bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatish g'oyat muhimdir.

Albatta, boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash faoliyatini rivojlantirish bo'yicha didaktik talablar va tabiiy fanlar misolida dars tahlili muhim mavzulardan biridir. Quyida bu mavzu asosida batafsil izoh va dars tahlilini ko'rib chiqamiz.

1. Kichik yoshdagi o'quvchilarning fikrlash faoliyati xususiyatlari

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun fikrlash quyidagi xususiyatlarga ega:

- Ko'rgazmali-obraziy fikrlash ustun bo'ladi.
- Abstrakt fikrlash hali to'liq shakllanmagan.
- Tajriba asosida bilimlarni o'zlashtirish samarali bo'ladi.
- O'yin, tajriba, mushohada orqali o'rganish osonroq.
- Yangi bilimni mavjud bilimlar bilan bog'lab tushunadi.

2. Didaktik talablar (tabiiy fanlar kontekstida)

Boshlang'ich sinfda tabiiy fanlar darslarini tashkil qilishda quyidagi didaktik talablarga amal qilish kerak:

Didaktik talablar	Mazmuni
Ko'rgazmalilik	Darsda rasmlar, maketlar, video lavhalar, jonli namoyishlardan foydalanish.
Faollashtiruvchi metodlar	Savol-javob, muammo qo'yish, tajriba o'tkazish, kichik guruhlarda ishlash.
Bosqichma-bosqichlik	Mavzuni soddadan murakkabga qarab tushuntirish.
Amaliy faoliyatga yo'naltirish	Tajriba, kuzatish, loyihalash ishlari orqali bilimni mustahkamlash.
Integratsiya	Tabiiy fanlarni matematika, adabiyot, texnologiya darslari bilan bog'lash.
Shaxsiy yondashuv	Har bir o'quvchining bilish qobiliyatiga qarab individual ish berish.

3. Dars tahlili: Tabiiy fanlar (3-sinf) mavzusi asosida

Mavzu: O'simliklarning o'sishiga suv va yorug'likning ta'siri

Dars maqsadi:

- O'quvchilar o'simliklar hayoti uchun suv va yorug'likning zarurligini tushunadi.
- Tajriba asosida kuzatish olib boradi va xulosa chiqaradi.
- Fikrlash, solishtirish va umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Dars tuzilmasi va tahlili

1. Kirish qismi (10 daqiqa)

- O'qituvchi savol beradi: "Uyda gulni sug'ormasak nima bo'ladi?"
- Ma'naviy-axloqiy bog'lanish: Atrof-muhitga mehr, o'simliklarga e'tibor.

• *Ko'rgazma*: Ikki dona bir xil gul ko'rsatiladi – biri suvli va yorug'likda, ikkinchisi esa quruq joyda.

Fikrlashni rivojlantiruvchi usul: Muammo qo'yish va taxmin qilish.

2. Asosiy qism (20 daqiqa)

• *Tajriba o'tkazish*: 3 xil idishga urug' solinadi:

1. Suvli va yorug'likda
2. Suvli, lekin qorong'ida
3. Quruq va yorug'likda

• Har bir guruh bu urug'larga kuzatuv olib boradi.

• O'quvchilar o'z xulosalarini yozib boradi.

Metodlar: Tajriba, kuzatish, guruhlarda ishlash.

Fikrlashga ta'siri: Sabab-oqibatni aniqlash, taxminni sinash, umumlashtirish.

3. Yakuniy qism (10 daqiqa)

• Har bir guruh natijalarni taqdim etadi.

• O'qituvchi xulosani umumlashtiradi.

• “Agar men bog'bon bo'lsam...” mavzusida mini-insho (fikir ifodasi) yoziladi.

Metod: Refleksiya, muloqotli yozma topshiriq.

Fikrlashga ta'siri: Fikrni ifodalash, o'z xulosasini asoslash.

4. Xulosa

Bu darsda quyidagi fikrlash faoliyatini rivojlantiruvchi metodlar qo'llanildi:

Metod	Maqsadi	Foydasi
Muammo qo'yish	Diqqatni faollashtirish	O'quvchini mustaqil fikrga undaydi
Tajriba	Bilimni sinash	Tahlil qilish va umumlashtirishga olib keladi
Guruhli ish	Hamkorlikda o'rganish	Tanqidiy va ijtimoiy fikrlashni rag'batlantiradi
Refleksiya	Fikrni ifodalash	O'quvchi o'z o'rganish jarayonini anglaydi

Bugungi kunda tabiatshunoslik darslarining samaradorligini oshirishda fanlararo bog'lanish uslublaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega bo'lib, boshlang'ich sinf tabiatshunoslik darslarida integratsion usullardan foydalanishning asosiy negizi hisoblanadi.

Ma'lumki hozirgi zamonda tabiatni muhofaza qilish, ekologik ta'lim va tarbiya berish masalalari eng asosiy va dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Asosan boshlang'ich sinflarda bu masalalarni qanday hal etish, qaysi metodlardan foydalanish, qaysi fanlarda bu tushunchalarni bolalarga etkazish hozirgacha o'z yechimini topolmay kelyapti.

Ushbu muammolarni hal etishda fanlar aro bog'lanish muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa hozirgi kunda uning asosini tabiiy fanlar bo'yicha bilimlar tashkil etib ularni integratsion usullar bilan yoritish maqsadga muvoffiq bo'lar edi.

Bunday yondoshishda fanga tabiat va jamiyatning birligini tushunish uchun zarur bo'gan bir qator ijtimoiy – iqtisodiy, axloqiy estetik, g'oya va tushunchalarni kiritish ko'zda tutilgan. Shu bois, boshlang'ch sinf o'quvchilariga tabiatni muxofaza etish tushunchalarini rivojlantirishda integrativ darslardan foydalanish, ayniqsa fanlararo bog'lanish darslari katta ahamiyatga ega. Masalan, darslarni ona tili darslariga bog'lanib, ko'zatish natijalarini umumlashtirish, tabiat hodisalarini va ularning mavsumiy o'zgarishlarini mavzuli insho tarzida yozdirish mumkin. Bunda o'quvchilar tabiat haqidagi tushunchalarni bayon qilish, tirik organizmlarga g'amxurlik, ularga yordam berish zarurligiga o'zlarining munosabatlarini ham yozadilar.

Bu bilan bir qatorda tabiiy fanlar darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa 1-2 sinflarda “tabiiy fanlar” fanini o'qitishda to'rtli didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvoffiqdir”.

Didaktik o'yinlar orqali o'qituvchilar bolalarga tabiat jismlari, tabiat hodisalari haqida ma'lumot berib bu bilan birgalikda ularning faolligini oshirishadi va fanga nisbatdan qiziqishlarini o'yg'otishadi.

Xulosa; Shunday qilib, o'quv metodik adabiyotlarning tahlillari va zamon talablaridan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda quyidagi talablarga amal qilinsa maqsadga muvoffiq bo'lar edi deb hisoblashimiz mumkin.

Eng avvalo, bu sinfda mustaqil (erkin) psixologik muhit, o'quvchilarga hurmat-ehtirom ishonch va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratish lozim.

Ikkinchidan, o'quv faoliyatining oliy motivini keltirib chiqarish, faqat o'quvchilarga o'quv materallarining ahamiyatiga bildirib qolmasdan, ularga bilim olishning o'qituvchi tamonidan taklif qilingan metodlariga e'tiborni qaratish lozim.

Uchinchidan, o'quvchilarni bilim olishni kafolatlovchi ishonchli metod va usullar bilan tanishtirish (tushuncha, o'zlashtirilgan bilimni amalda qo'llay olishga qaratilgan metod va usullar bilan tanishtirish). Bu o'quvchilarning yaxshi o'qishiga, ta'lim-tarbiya olishda faollikka, ijodkorlikka olib boradigan foydali yo'nalishlardan biri bo'lib hisoblanadi;

To'rtinchidan, darsni o'quvchilarning mustahkam, yaxshi bilim olishga (bilim olish bu nazariy olgan bilimlarni hayotda qo'llay bilish degan so'z) yo'naltirish. Bu esa o'quvchining o'z bilimi va kuchiga ishonchni yanada oshirishiga olib keladi;

Beshinchidan, barcha o'quvchilarning yuqori darajada bilim olib, (Davlat ta'lim standarti asosida) uni yangi sharoitda qo'llay olish imkoniyatlariga sharoit yaratish.

Darsda o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatini to'g'ri xulosali tashkillashtira olish va ularning o'z mehnatining mevasidan qanoatlana oladigan sharoitlar yaratish.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan materiallar asosida aytish mumkinki tabiiy fanlar darslari orqali o'quvchilar o'zlari yashayotgan tevarak atrof, tabiat jismlari, tabiat hodisalari va tabiat qonuniyatlari haqida birlamchi tushunchalarga ega bo'lishadi. Ularni asrab avaylash, muhofaza etish uchun harakat qilishadi. Bu esa ularni vatanparvarlik ro'hida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro'yxati;

1. Vygotskiy L.S. *Pedagogik psixologiya*.–Toshkent: O'qituvchi, 2000.– 320 b.
2. Davydov V.V. *Faoliyat nazariyasi va boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlashini rivojlantirish*. – Moskva: Pedagogika, 1986. – 256 b.
3. Tillaev T. *Didaktika*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 280 b.
4. Raxmonov R., Allayeva M. *Boshlang'ich ta'lim metodikasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 312 b.
5. Toshxo'jayev X. *Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalar*. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021. – 198 b.
6. Petrovskiy A.V., Yaroshevskiy M.G. *Psixologiya: Lug'at*. – Moskva: Politizdat, 1990. – 480 b.
7. Yusupova Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash faoliyatini rivojlantirishning samarali yo'llari // *Xalq ta'limi*. – 2022. – №3. – B. 45–49.
8. Nurmatova G. Didaktik talablar asosida o'quvchilar tafakkurini shakllantirish // *Pedagogik mahorat*. – 2021. – №4. – B. 28–31.
9. Hasanboyeva G. *Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda darsning tuzilishi va metodikasi*. – Andijon: AndMIU nashriyoti, 2020. – 140 b.
10. Zunnunova D. Rivojlantiruvchi ta'limda o'quvchilar tafakkurini shakllantirish // *Ta'lim va rivojlanish jarayoni*. – 2020. – №2(7). – B. 56–61.